



TARBIYA FANINI O‘QITISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Yunusmetova Nasiba Satimbekovna

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazining

Tarbiya fani metodisti

Annotatsiya : ushbu maqolada Tarbiya fanini o‘qitishga qo‘yiladigan talablar, darslarni samarali tashkil etishda pedagogik mahorat, innovasion metodikalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya fani, talab, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, fanining asosiy vazifasi, interfaol usullar

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida bayon etilgan ko‘rsatmalarni amalga oshirish va tayyorlanayotgan mutaxassislar sifatini jahon ta’limi andozalari talablariga mos bo‘lishini ta’minlash bugungi kunda ta’lim tizimi oldidagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. O‘z o‘rnida mazkur masala va muammolar yechimi yo‘lida yurtimizda keng ko‘lamdagi ta’lim islohotlarini amalga oshirish, ta’lim jarayoniga axborot va zamonaviy, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, ta’lim va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash kabi vazifalarni amalga oshirish ta’limga yangicha yondashuvni talab etadi. Zotan, ta’lim va tarbiyaning hayot talablari va bugungi taraqqiyotimizning muhim muammolari bilan birga o‘rganish, uni yanada boyitish, takomillashtirish va tushuntirish, targ‘ib etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, Tarbiya fanining asosiy vazifasi o‘quvchilarda yangicha dunyoqarash va mafkuraviy immunitet asoslarini, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, yosh avlod qalbida g‘oyaviy bo‘shliq vujudga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularni ajdodlarning shonli kechmishi, fidokorligi va qahramonona hayoti ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Ayniqsa, Axborot va globallashtirish asri deb atalayotgan bugungi kunda ushbu maqsadga erishish uchun



o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Barkamol avlodni tarbiyalash uchun ularning ijodiy qobiliyatini o‘stirish, mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirish zarur bo‘lganidek, o‘z o‘rnida pedagoglarda ham ta‘lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri va muvaffaqiyatli tashkil etish mahoratini oshirish lozimligini hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Shu bois bugungi kunda — Tarbiya fanini o‘qitishda quyidagi eng muhim talablar qo‘yilmoqda:

- har bir darsda tanlanadigan mavzuning ilmiy asoslanganligi, ya‘ni darsdan ko‘zlangan maqsad hamda o‘quvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, o‘tgan darsdagi o‘tilgan mavzu bilan bog‘lash, o‘quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning ketma-ketligini aniqlash, darsda kerak bo‘ladigan jihozlarni belgilash va qo‘shimcha ko‘rgazmali qurollar bilan boyitish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darsda muammoli vaziyatni yaratish;
- Tarbiya fanini (1-4-sinflar), (5-6-sinflar), (7-8-9-sinflar), (10-11-sinflar) o‘qitish bo‘yicha interfaol usullarni qo‘llash, amalda qo‘llanilayotgan va yangi o‘quv qo‘llanmalarining mazmun-mundarijalarini o‘rganish va tahlil etish;
- dars mavzularini bayon etishda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan muqaddas manbalarimizdan, ertak, rivoyat, hikoya, maqol va hikmatlardan, buyuk ajdodlarimizning boy meroslaridan, hozirgi zamon bolalar shoiri va yozuvchilarining asarlaridan qiziqarli tarzda tashkil etiladigan darslar orqali unumli foydalanish; – shuningdek, fanlararo uzviylikka e‘tibor berish, amaliy, ijodiy mashg‘ulotlarni ko‘proq kiritish, bu borada mahoratli o‘qituvchilarning ijodiy ish tajribalaridan keng foydalanish. Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida har bir pedagog ta‘lim muassasasining spetsifik xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyatini o‘quvchilar jamoasining umumiy tayyorgarliklariga individual va differentsial yondoshgan holda tashkil etmog‘i va amalga oshirib bormog‘i lozim.



Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi shaxsiy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish eng samarali mexanizm bo'lib tarbiya fanlarini o'qitilishida uzviylik va izchillikni ta'minlaydi.

Malaka oshirish professor o'qituvchilari o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashi kerakki, ular pedagoglarni tayyor metodikalar berib qolmasdan, ayni paytda, ularda turli manbalardan mustaqil ravishda foydalanish, metodlar bazasini shakllantirish, undan yangi ma'lumotlar olishda foydalanish malakalariga ega bo'lishlari lozim.

Bu talablar uzluksiz kasbiy rivojlanishda, pedagog faoliyatida ob'ektiv va subektiv jarayonlar uyg'unligi, integrativ ta'limning metod va vositalarning bir-biri bilan bog'liqligi, umumiy qonuniyatlari hamda tamoyillaridan foydalanib amalga oshiriladi.

Tarbiya fani o'qituvchilarini keng doiradagi hamda mutaxassislikka doir yaratilgan dasturlarni mustahkam fundamental bilimga ega bo'lgan, o'z faoliyatida qo'llay oladigan pedagogik kadrlar tayyorlash maqsadini qo'yadi.

Tarbiya fani o'qituvchilarini integrativ yondashuv asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish kompetensiyalarini o'quv rejasi va dasturlari tarkibiga kiruvchi har bir o'quv modulini o'qib o'zlashtirishda ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, seminar, tajriba almashish darsi, trening, interfaol mashg'ulotlar va boshqa shakllarda olib boriladigan o'quv mashg'ulotlarida yana nimalarga ehtiyoj sezayotgaliklari to'g'risida tadqiqot doirasida so'rovnomalar olib boriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarbiya fanini o'qitish metodikasida fanlararo aloqalar va integrativ yondashuv pedagogikada mutlaqo yangi yo'nalish emas, hozirgi vaqtda o'qituvchilar o'rtasida idrok etilayotgan bilimlarning izchilligi va yaxlitligini shakllantirish alohida ahamiyatga ega ekanligi yurtimiz hamda xorij olimlari tomonidan etibor qaratilgan bo'lib, bugunda Integrativ ta'lim asosida maktab pedagoglarining kasbiy rivojlanishlariga katta etibor qaratish zarurati tug'ilmoqda.



Integrativ ta'lim asosidagi darslarning ko'pgina afzalliklariga qaramay, uni tayyorlashda ba'zi qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin: Ushbu mavzularni o'rganish vaqtida dasturga mos kelmasligi mumkin, keyin esa mavzu bo'yicha o'xshash mavzularni aniqlash uchun rejalashtirishga o'zgartirishlar kiritish kerak bo'ladi.

Shu jihatdan, olib borilayotgan tadqiqot ishimizda tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy mahoratini uzluksiz oshirib borishda ularga metodik yordam berish ishlarni tashkil etish, metodik yordamni to'g'ri o'zlashtira olayotganliklarini o'rganish va nazorat qilish, ertangi ish faoliyatida amaliyotda qo'llay olishini tahlil qilmog'imiz lozim.

Malaka oshirish kurslari jaryonida professor-o'qituvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy va amaliy metodik yordamlar tinglovchilarning kasbiy shaxsiy ish faoliyatidagi o'sishini rivojlanishni ilmiy-metodik kuzatuvni tashkil qilish, va o'rganilgan natijalar tahlili asosida ularga amaliy ko'mak berish va qo'llab-quvvatlash zaruriyati tug'ilmoqda.

Chunki har bir pedagog zimmasida bo'lgan yuksak ijtimoiy vazifa, faqatgina kasbiy rivojlanish emas, balki har taraflama barkamol, hayotiy vaziyatlarga tayyor bo'lish malaka oshirishda olgan bilimlarini ish faoliyatida qo'llay olishi bilan bog'liq.

Integrativ ta'lim asosida tarbiya fani o'quv mashg'ulotlari jaryonida amaliy metodik yordam berish va pedagoglarni qo'llab-quvvatlash, metodik ishlar mazmuni, vazifalari, funksiyalari va shakllarini sezilarli darajada mukammallashtirishni talab qiladi.

Aytish mumkinki, malaka oshirish kurslari jarayonida tinglovchilarning kasbiy rivojlanishlardagi muammolariga duch kelamiz.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishda bu muammolar tarbiya fani o'qituvchilarining talab-istaklaridan kelib chiqib, mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida bartaraf etiladi. Masalan: 9-sinfda 29-mavzu: "Frilanserlik – qo'shimcha daromad manbai" mavzusini o'qitishda "Bank" metodini qo'llash.

O'quvchilar uch guruhga bo'linadi va shunday nomlanadi

1-guruh : Xalq bank

2- guruh: Milliy bank

3-guruh: Aloqa bank

Har bir qatorning boshiga bank nomlari yozilgan konvertlar qo'yiladi.



Har bir guruhga o'zbek pullari rasmi bor kartochkalar tarqatiladi. Uning orqa qismiga oldindan fanizga aloqador savollar yozilgan bo'ladi.

(O'quvchilar soni xohishiy.

Masalan har bir guruhdan 10 tadan)

Savollarga javob bergan o'quvchilar o'zlarining bank konvertlariga pullarini qo'yishadi. Topolmagan o'quvchilar o'z joyida qolishadi.

Oxirida har bir guruhning konvertidagi pullarning so'mmasi hisoblanib, ko'p pul to'plagan guruh g'olib bo'ladi.

Kichik guruhlarda ishlashda hosil bo'ladigan jarayonlar

Bir necha kishi birga ishlasa, ular kelishib olishlari kerak bo'ladi. Xarakter, temperamentlar, shaxsiy xususiyatlar o'zaro ta'sirga kirishib, konfliktli vaziyatlar yuzaga kelish ehtimoli bor. O'qituvchi bu haqida aniq tushunchaga ega bo'lishi kerak, chunki bunday jarayonlar topshiriq muvaffaqiyatli bajarilishiga ta'sir qiladi. Guruh tuzilishi jarayonlarida odatda kichik konfliktlar kelib chiqadi. Bu jarayonda o'qituvchi quyidagilarga ahamiyat qaratishi zarur:

- Norasmiy liderlik uchun kurash

Guruhning bitta yoki bir nechta a'zosi guruh lideri bo'lish uchun kurashadilar. Bunda avtoritet, bilimlar darajasi, ijtimoiy energiya asosiy kuch hisoblanadi. Bu kurash doim sodir bo'ladi.

- Iyerarxiyada muhim o'rin uchun kurash

Bunda guruh a'zolari bir-biriga qanday iyerarxik munosabatda bo'lishlari hal qilinadi va guruhning eng zaifi ham aniqlanadi. Bu borada bir necha farqli omillar muhim rol o'ynaydi. Ular o'quvchining bilim darajasi pastligi bilan emas, balki uning ijtimoiy statusi va yurish-turishi bilan bog'liqdir.

- Guruhiy standart hosil bo'lishi

Bunda guruh ichida bir xil fikrlash va hissiyot vujudga kelishi tushuniladi. Barcha guruh a'zolari amal qilishlari kerak bo'lgan xulqiy qoidalar paydo bo'ladi va kimdir shu qoidalarni buzsa, guruh tomonidan jazolanadi. Shu kabi hech qayerda yozilmagan qoidalar paydo bo'ladi, masalan "Kim, qaysi qismni to'ldirishi kerak va hk..."



- Juftliklar tuzilishi

Kichik guruh 6 kishidan ko'proq a'zolaridan iborat bo'lsa, juftliklar tuzilishi hosil bo'lishini kuzatish mumkin. Juftlik deganda, guruhning 2 ta a'zosi qalinroq birlashadi va shu ravishda harakatlanadi. Sababi - umumiy kuchli tomonlar yoki umumiy zaif tomonlar ularni birlashtiradi.

- Rol tanlanishi

Rollar har xil bo'lib, aktiv va passiv turlarga bo'ladi. Ba'zi rolga kishi o'zi kirishib ketadi, ba'zilariga esa atrof-muhit undaydi. Masalan, norasmiy lider, eng qobiliyatli, oppozitsioner, eng yoqimtoy, nazoratchi, hech kimga qo'shilmaydigan va h.k.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – QHMMB, 24.09.2020. 03/20/637/1313–son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" 29 apreldagi 2019 yildagi PF–5712–son Farmoni – QHMMB, 29.04.2019. 06/19/5712/3034–son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm–fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2020 yil 29 oktyabrdagi PF–6097–son Farmoni QHMMB: 06/20/6097/1431–son 30.10.2020 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim–tarbiya va ilm–fan sohalarini rivojlantirish chora–tadbirlari to'g'risida"gi 2020–yil 6–noyabrdagi PF–6108–son Farmoni – QHMMB, 07.11.2020. 06/20/6108/1483–son.
5. Abdullaeva B.S. Fanlararo alokadorlikning metodologik–didaktik asoslari (ijtimoiy gumanitar yunalishdagi akademik liseylarda matematika ukitish misolida). T, DPU, 2006
6. Abdullaeva M.N. Milliy goyaning ilmiy falsafiy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Falsafa va xukuk, 2011. – S.67.
7. Shodmonova S.B. Yuldashev M.M. "Tarixiy tadkikotlarning metodologiyasi va zamonaviy usullari" ISBN 978–9943–25–913–3. Toshkent.. "O'zbekiston" 2019–y 82–b